O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK : 338.46(575.1)

AGZAMOVA IRODA DALIROVNA

IQTISODIY O’SISHGA XIZMATLAR SOHASI TA’SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI

70310201 - “Ekonometrika” mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: **PhD., prof. Utanov B.Q.**

Toshkent-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar **PhD, prof. Utanov B.Q.**

Kafedra mudiri **PhD, prof. Utanov B.Q.**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani **i.f.d., prof. J.I.Karimqulov**

Men, Agzamova Iroda Dalirovna ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

Agzamova I.D. _____ "_____" _____ 2025-yil

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
"IQTISODIY STATISTIKA" KAFEDRASI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHLARINING DASTLABKI HIMOYA BAYONNOMASI

2024 - yil 17 - dekabr **Toshkent shahri**

Rais: i.f.f.d., dots. B.K.Utanov
Kotib: i.f.f.d., dots. M.Raxmataliyev
A`zolar: I.f.d., professor., dotsentlar B.Mamatkulov, M.Raxmanov, D.Sapaev, A.Jumaevlar

KUN TARTIBI:

70310201 – Ekonometrika mutaxassisligi bo`yicha 2-kurs E-5K - guruh magistratura talabasi Agzamova Iroda Dalir qizini magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasi

Rais: Kafedraning magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasida professor-o`qituvchilar va magistrantlar qatnashmoqda. Ruxsatingiz bilan "Iqtisodiy statistika" kafedrasining magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasini ochiq deb e'lon qilaman.

Bugungi masala 70310201 – Ekonometrika mutaxassisligi bo`yicha 2-kurs E-5K - guruh magistratura talabasi Agzamova Iroda Dalir qizining "Iqtisodiy O'sishga Xizmat sohasi ta'sirining ekonometrik tahlili" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun olib borilgan magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasining muhokamasi.

Semenar raisi: Muhokamani o`tkazish haqida qanday takliflar bor? Kun tartibiga qo`yilgan masala bo`yicha avvalo, magistrning ma'ruzasini eshitib, keyin muhokamaga o`tsak. Demak, ma'ruza uchun so`z magistr Agzamova Iroda Dalir qiziga beriladi.

Eshitildi: Magistr Agzamova Iroda Dalir **qizi:** Assalamu alaykum hurmatli seminar raisi, ustozlar, doktorantlar va magistrantlar! Hurmatli semenar raisi va a`zolari, Mening dissertatsiya ishimni o'zbek tilida yozishga va dastlabki va asosiy himoyani o'zbek tilida olib borishga ruxsat berishingizni so`rayman.

Raisi: i.f.f.d., dots B.K.Utanov: Magistrant Agzamova Iroda Dalir qizining "Iqtisodiy O'sishga Xizmat sohasi ta'sirining ekonometrik tahlili" mavzusida magistrlik dissertatsiya ishini o'zbek tilida yozishga va dastlabki hamda asosiy ximoyani o'zbek tilida qilshga ruxsat berish uchun ovozga qo`yamiz, marhamat.

Ovoz berish natijalariga ko`ra: rozilar – 100%, qarshilar – yo`q, betaraflar – yo`q.

Raisi: i.f.f.d., dots B.K.Utanov "Iqtisodiy O'sishga Xizmat sohasi ta'sirining ekonometrik tahlili" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dastlabki asosiy natijalarini o'zbek tilida ximoya qilish uchun so`z magistrant qiziga.

Eshitildi: Magistr Agzamova Iroda Dalir qizi: Raxmat, sizlarga "Iqtisodiy O'sishga Xizmat sohasi ta'sirining ekonometrik tahlili" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dastlabki asosiy natijalari bilan tanishtirib o`tishga ijozat berganlaringiz uchun o`z minnatdorchiligimni bildiraman.

Rais: i.f.f.d., dots B.K.Utanov maruza tugadi. Marxamat kimda savollar bor?

Savollar berdilar:

i.f.f.d., dots. M.Raxmonov:

Savol: Tadqiqot ishingizning maqsadi nimalardan iborat?

Javob: Tadqiqot ishimizning maqsadi xizmat sohasi yordamida Iqtisodiy rivojlanishning ekonometrik tahlili jarayonlarini ishlab chiqishdan iborat.

i.f.f.d., dots. A.Jumayev

Savol: Tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti?

Javob: Tadqiqot ob'ekti sifatida xizmat sohasida ishlab chiqarish jarayonlari statistik

“Iqtisodiy o‘sishga xizmatlar sohasi ta’sirining ekonometrik tahlili” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: Xizmatlar, Yalpi hududiy mahsulot, Korelyatsiya-Regressiya, testlar, statistik baholash, ekonometrik model, F-test, var, Arima.

Tadqiqot obyekti: mamlakatning xizmat ko‘rsatish tarmog‘i iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot jarayonida umummantiqiy (induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, analogiya, umumlashtirish) va xususiy-ilmiy (taqqoslash, guruhlash, korrelyatsiya va regression tahlil va iqtisodiy-matematik) metodlardan foydalaniladi.

Ilmiy yangiligi: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini statistik baholash bo’yicha ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirilgan;

- O‘zbekistonda xizmatlar sohasi hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi 6 turdagi ko‘rsatkichlar dinamikasi panel ma’lumotlari sifatida tanlab olinib, 4 xil model bo‘yicha parametr qiymatlari aniqlangan;

- O‘zbekistondagi xizmatlar sohasi bilan uning iqtisodiy o‘sish darajasi o‘rtasidagi bog‘lanish kointegratsion VAR metodi orqali modellashtirilgan;

- xizmatlar sohasini ekonometrik prognozlash modellari variantlari taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining xulosa va tavsiyalari Respublikada xizmatlar sohasi hajmini oshirishga qaratilgan maqsadli loyihalar va strategiyalarni belgilashda taklif etiladigan ekonometrik modellardan foydalanish hududlarda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, raqobatbardoshlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkonini beradi. Ushbu loyihalar mamlakatning global iqtisodiyotda o'z o'rnini mustahkamlash, turli sohalarda innovatsiyalarni joriy etish va odamlar uchun yanada qulay xizmatlar taqdim etishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqilgan tavsiyalar va berilgan amaliy takliflar xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlarini belgilashda, ular bo‘yicha

me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, davlat tadbirlarini amalga oshirish jarayonida keng qo'llanilishi mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: Tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi kelgusida prognoz qilish va qaysi hududda pastroq natija bo'lsa o'sha hudud bilan ishlashga e'tibor qaratiladi.

ANNOTATION

Keywords: Services, Gross Regional Product, Correlation-Regression, tests, statistical assessment, econometric model, F-test, VAR, ARIMA.

Research Object: The economic activity of the country's service sector.

Research Methods: The research utilizes general logical methods (induction, deduction, analysis and synthesis, analogy, generalization) and specific scientific methods (comparison, grouping, correlation and regression analysis, and economic-mathematical methods).

Scientific Novelty:

1. A system of indicators for statistical assessment of the service sector in Uzbekistan has been developed.

2. The dynamics of six types of indicators influencing the volume of the service sector in Uzbekistan were selected as panel data, and parameter values were determined for four different models.

3. The relationship between the service sector and the country's economic growth rate was modeled using the cointegration VAR method.

4. Variants of econometric forecasting models for the service sector were proposed.

Theoretical and Practical Significance of the Research Results. The conclusions and recommendations of the research aim to enhance the volume of the service sector in Uzbekistan by applying the proposed econometric models in developing targeted projects and strategies. These measures will help ensure economic growth in regions, create new jobs, enhance competitiveness, and expand export potential.

These projects are expected to strengthen the country's position in the global economy, introduce innovations in various sectors, and provide more convenient services for the population.

In addition, the developed recommendations and practical proposals can be widely used in determining directions to improve service delivery, developing regulatory documents, and implementing state programs.

Application Level and Economic Efficiency: The practical implementation of the scientific proposals and recommendations developed during the research will enable forecasting and identifying regions with lower performance, focusing attention on improving those regions.

MUNDARIJA

KIRISH **3**

I BOB. IQTISODIY O‘SISH VA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI **11**

1.1. Hududning xizmat ko‘rsatish sohasini o‘rganishning nazariy asoslari 11

1.2. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari 20

1.3. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan modellar va ularni O‘zbekiston amaliyotiga qo‘llash tajribasi 26

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar 31

II BOB. IQTISODIY O‘SISH VA XIZMAT SOHASI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH **32**

2.1. Hududning xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini statistik baholash 32

2.2. Hududning xizmat ko‘rsatish hajmini korrelyatsion-regression tahlil qilish 36

2.3. Hududlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish darajasini Panel ma’lumotlari orqali ekonometrik modellashtirish 46

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar 49

III BOB. XIZMATLAR SOHASIDAGI IQTISODIY JARAYONLARNI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH **50**

3.1. Xizmatlar sohasini trend tenglamalari orqali prognozlash 50

3.2. Xizmatlar sohasini ARIMA modeli yordamida prognozlash 55

3.3. Xizmatlar sohasidagi iqtisodiy jarayonlarni VAR modeli yordamida prognozlash 65

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar 70

XULOSA **79**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI **80**

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Faoliyatning keng doirasini o‘z ichiga olgan xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi, yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga yordam beradi. An’anaviy ishlab chiqarish tarmoqlaridan farqli o‘laroq, bu sektor o‘z mijozlariga moliyaviy, ta’lim, sog‘liqni saqlash, texnologiya, mehmondo‘stlik, turizm va boshqalar kabi turli sohalarda xizmatlar ko‘rsatishni qamrab olgan nomoddiy yechimlarni taqdim etishga qaratilgan.

Xizmatlar sohasi sababli butun dunyo bo‘ylab iqtisodiyotning asosi shakllanmoqda, mazkur soha talab o‘zgarishiga moyilligi kam bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarga birinchi bo‘lib javob beradi, shu bilan birga uning jahon YaIMdagi ulushi doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Xizmatlar sohasi YaIMga va yangi ish o‘rinlari yaratishga salmoqli hissa qo‘shishi bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirish, sarmoyaviy muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda yangi texnologiyalar faol joriy etilmoqda, infratuzilma va ta’lim rivojlanmoqda, bu xizmatlar sohasining tez o‘sishiga yordam beradi.

2023-yil yakunlariga ko‘ra, xizmatlar sohasining O‘zbekiston Respublikasi YAIMdagi ulushi 43,4 % ni tashkil etgan. Xizmatlar sohasining YAHM tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida (60,9 %), eng kichik ko‘rsatkich esa Navoiy (12,2 %) va Toshkent (24,8 %) viloyatlarida kuzatilgan.[1]

Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga yurtboshimiz rahnamoligida alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, bilan mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-son qarori xizmat

[1] https://www.navstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/11706-yaim-yahm-ning-tarmoqlar-bo-yicha-tarkibida-xizmatlar-sohasining-ulushi-qanday-5